


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi  
№ 310  
2019 yil «\_\_»

«Tasdiqlayman»  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
prof. A.S.Soleev

«\_\_» ULUBOI 2019 yil



LANDSHAFTSHUNOSLIK  
FANI  
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi	140000 – Tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi	5140600 – Geografiya

Samarqand 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi, namunaviy o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Ravshanov A.X. - SamDU ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasini katta o'qituvchisi

Taqriban:

Alibekov L.A. - SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasini professori, g.f.d.

Raxmatullayev A. - SamDU Gidrometeorologiya kafedrasini professori, g.f.d.

Fanning ishchi o'quv dasturi ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasining 2019 yil  
dagi № \_\_\_\_\_ son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama  
kilish uchun tavsija etilgan.

Kafedra mudiri:

dots. M.A. Kadirov

Fanning ishchi o'quv dasturi Geografiya va ekologiya fakulteti Kengashida muhokama etilgan  
va foydalanishga tavsija qilingan (2019 yil \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_-sonli bayonnomaga)

Fakultet uslubiy kengashi

dots. T.J. Jumaboyev

Fakultet dekani

dots. I.Z. Ibragimov

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

dots. B. Aliqulov



## Kirish

Inson va tabiat o‘rasidagi o‘zaro munosabatlarning yildan yilga keskinlashib borishi, tabiat qonuniyatlarini chuqur bilishni, tabiiy resurslardan tejab-tergab ilmiy, asoslangan holda foydalanishni talab etadi. Bu esa tabiiy geografik bilimlarni chuqur egallashni taqazo etadi.

Landshafshunoslik fani tabiiy geografiyaning muhim bir qismi sifatida kishilik jamiyatining amaliy talablariga bog‘liq holda shakllandi va rivojlanib kelmoqda. U inson bilan tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar samaradorligining oshirishning ilmiy asoslarini yaratish va haqiqiy madaniy landshaftlarni barpo qilishining qoida va usullarini ishlab chiqish bilan shug‘ullunadi. Landshaft haqidagi ta’limot esa geografiya fanining muhim qismi sifatida tabiiy geografiyaning amaliy hayotga kirib borishida ilmiy nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Landshafshunoslik” kursi serqirra universitet ta’limi berishning asosiy prinsplariga ko‘p jihatdan mos keladi. Unda xozirgi zamon landshafshunosligining fundamental ilmiy-nazariy asoslari o‘rganiladi.

### O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – “Landshafshunoslik” kursining asosiy maqsadi talabalarda Er landshaft qobig‘ining bir butunligini, uning komponentlari bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq va aloqador ekanligi ular orasidagi murakkab modda va energiya almashuvi jarayoni mavjudligi haqidagi tushunchalarni shakllantirishga hamda Er landshaft qobig‘ini tashkil qiluvchi geosistemalar haqidagi bilimlarni hosil qilishdan iboratdir.

Fanning vazifasi talabalarni - landshafshunoslik g‘oyalarining shakllanishi va taraqqiyot tarixi, landshafshunoslikning ilmiy nazariy asoslari, landshaftlarning strukturasi, landshaftlarning kelib chiqishi, dinamikasi, rivojlanishi va maxsus faoliyati, antropogen landshaftlar, ularning hosil bo‘lishi va tasniflari, amaliy landshafshunoslik (landshaftlarni baholash va prognozlash), tabiiy resurslardan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning landshaft-ekologik prinsiplari va metodlari kabilar bilan tanishtirishdan iborat.

### Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“Landshafshunoslik” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:

-tabiiy geografik fanlar sistemasi va unda landshafshunoslikning o‘rni, tabiiy geografiyadagi metodologik masalalar, landshafshunoslik tarixi, landshaft haqidagi mavjud tushunchalar, landshaftlarning ichki tuzilishi, landshaftlar dinamikasi, evolyutsiyasi va rivojlanishi, landshaftlarning maxsus faoliyati, landshaftlarni tasniflash, landshaftlarni tabaqlanishi va tabaqlanish omillari, geosistemalar va geotexsistemalar, amaliy landshafshunoslik masalalari (landshaftlarni baholash va prognozlash)ga oid nazariy asoslarni **bilishi kerak**;

- talaba landshafshunoslik va tabiiy geografiya doirasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va bajarishga doir **ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak**;

- talaba turli tabiiy geografik tizimlar, ularning komponentlari va ular orasidagi alooqadorliklarni ilmiy tadqiq qilishda mavjud tadqiqot usullarini qo‘llay bilish va xulosalar chiqarish **malakalariga ega bo‘lishi kera**.

### Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan o‘zviy ketma – ketligi

“Landshafshunoslik” fani asosiy umumkasbiy fani hisoblanib 4-semestrda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish uchun fanning namunaviy o‘quv rejasidan o‘rin olgan matematik va tabiiy-ilmiy (oliy matematika, fizika, kimyo, ekologiya asoslari), umumkasbiy (umumiyl Er bilimi, mutaxassislikka kirish) fanlaridan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

### Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Bo‘lajak geograf bakalavrлari o‘zlarining ishlab chiqarish faoliyatida, jumladan mакtab, kollej va litseylarda o‘quvchilarga dars berish jarayonida, turli ilmiy tadqiqot ishlarida dala – kuzatuv hamda o‘lchash ishlarini tashkil etishlarida, ulardan xalq xo‘jaligining turli sohalarida samarali

foydalanimishda ushbu fan bo'yicha, ya'ni geotizimlarning shakllanishi, rivojlanishi, maxsus faoliyati, ularning tasniflanishi haqida olgan nazariy va amaliy bilimlariga tayanadilar. SHU jihatdan "Landshafshunoslik asoslari" o'quv fani yuqori malakali geograflar tayyorlash tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning "Umumiy Er bilimi" o'quv fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanimish, bu jarayonda yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, turli mavzudagi haritalar elektron materiallar va ko'rgazmali qurollardan foydalaniлади. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida mavzuga mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi.

### **"Landshafshunoslik" fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi: gidrometeorologiya yo'nalishi**

<b>T/R</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Jami soat</b>	<b>ma'ruza</b>	<b>Amaliy mashg'ulot</b>	<b>Mustaqil ta'lim</b>
1.	Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni	10	2	2	6
2.	Landshafshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi.	10	2	2	6
3.	O'zbekistonda Landshafshunoslik fanining rivojlanish tarixi.	10	2	2	6
4.	Landshaftlarni hududiy tabaqlananishi. Kenglik zonallik.	8	2	2	4
5.	Azonallik.Balandlik mintaqalari.	8	2	2	4
6.	Landshaft haqidagi asosiy tushunchalar	10	2	2	6
7.	Landshaft komponentlari, chegaralari, yoshi	10	2	2	6
8.	Landshaftlarning ichki tuzilishi. Fatsiyaning bir butunligi va bo'linmasligi.	8	2	2	4
9.	Urochishalar landshaftlarning asosiy morfologik qismi ekanligi. Urochishalarni tasniflash.	10	2	2	6
10.	Landshaftning dinamikasi, evolyutsiyasi va rivojlanishi	10	2	4	4
11.	Landshaftlarni maxsus faoliyati	14	4	4	6
12.	Landshaftlarni tasniflash masalalari	10	2	2	6
13.	Landshaft va inson aloqadaorligi masalalari. Amaliy landshafshunoslik.	10	2	4	4
14.	Landshafshunoslik va ekologiya	8	2	2	4
15	Landshaft haritalari va ularning turlari.	8	2	2	4
<b>JAMI</b>		<b>144</b>	<b>32</b>	<b>36</b>	<b>76</b>

## **Asosiy qism** **Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**

“Landshafshunoslik” fani, predmeti, tadqiqot ob’ekti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O‘quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog‘liqligi..

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A3; Q8; Q13.

### **Landshafshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi**

V.V. Dokuchaevning tabiiy komponentlar aloqadorligi va ular bir butun majmua sifatida o‘rganilishi kerakligi haqidagi g‘oyalari.

1913-1914 yillardagi rus tabiatshunos olimlari L.S.Berg, G.F.Morozov, I.M.Krasheninnikov, R.I. Abolinlarning landshaft haqidagi fikrlari. 1920-1940 yillarda bajarilgan B.B.Polinov, I.V.Larin, A.D.Gojev, L.G.Ramenskiy, L.S.Berg kabilarning ishlari va ularning landshafshunoslikning rivojlanishidagi ahamiyati. Ikkinci jahon urushidan keyingi davrlardagi landshafshunoslikning rivojlanishi va unda L.S.Berg, N.A.Solnsev, S.V. Kalesniklarning roli.

1950-1970 yillardagi A.G.Isachenko, F.N.Milkov, V.S. Preobrajenskiy, N.A. Gvozdeskiy, D.L.Armand, V.B.Sochava va boshqalarning landshafshunoslikka qo‘sghan hissalar. 1970 yildan so‘nggi landshafshunoslikning rivojlanishi va undagi asosiy yo‘nalishlar. O‘zbekiston landshafshunoslaringin qo‘sghan hissalar.

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** muammoli ta’lim, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1; A4; Q8; Q13.

### **Landshaftlarning hududiy tabaqalanishi va tabaqalanish omillari**

Tabaqalanishning asosiy qonuniyatları. Zonallik, azonallik, provinsiallik. Landshaftlarning balandlik bo‘ylab mintaqalanishi va landshaft yaruslari. Landshaftlarning kelib chiqishi va rivojlanishiga bog‘liq holda juftlashib kelishi. (paragenetik va paradinamik landshaftlar).

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A3; Q5; Q7, Q11.

### **Landshaft haqidagi asosiy tushunchalar**

Landshaft-regional birlik tushunchasi (A.G.Isachenko, S.V.Kalesnik fikrlari); landshaft-tipologik birlik tushunchasi (N.Gvozdeskiy va boshqalar); landshaft-umumiyy tushuncha (F.N.Milkov fikri); V.A.Nikolaevning landshaft haqidagi mulohazalari..

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** bumerang, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A4; Q8; Q13.

### **Landshaftlarning ichki tuzilishi**

Landshaft tashkil qiluvchi omillar va landshaftning tarkibiy qismlari. Landshaftlarning morfologik tuzilishi. L.G.Ramenskiy, B.B.Polinov, N.A.Solnsevlarning landshaft morfologiyasiga qo‘sghan hissalar. Fatsiya landshaftlarning eng kichik morfologik qismi ekanligi. Fatsiyaning bir butunligi va bo‘linmasligi. Fatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari. Ularni tasniflash masalalari.

Urochishalar landshaftlarning asosiy morfologik qismi ekanligi va fatsiyalarning yig‘indisidan iboratligi. Oddiy va murakkab urochishalar. Urochishalarni tasniflash. F.N.Milkovning “Landshaft” va “Joy turi” tushunchalari haqidagi fikrlari. Tog‘ landshaftlari haqida G.P.Millerning fikri.

Landshaftlarning ichki tuzilishini tahlil qilishda turli modellardan foydalanish. Landshaft modellari landshaftlarning tarkibiy qismlari hamda morfologik qismlari orasida bo‘ladigan

aloqadorliklar haqida umumiy tasavvur hosil qilishi. Vertikal va gorizontal, to‘g‘ri va teskari aloqadorliklar, ijobiy va salbiy aloqadorliklar va h.k.

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A4; Q8; Q10.

### **Landshaftning dinamikasi, evolyutsiyasi va rivojlanishi. Landshaftlarni maxsus faoliyati**

Landshaftlarda muttasil ro‘y berib turadigan modda va energiya almashinishi landshaftlarning qotib qolmagan, doimo o‘zgaradigan moddiy tizim ekanligidan dalolat berishi. “Invariant” va “Landshaftning holati” tushunchalari. Landshaftlardagi asl holiga qayta oladigan va asl holiga qayta olmaydigan o‘zgarishlar. Landshaftlarning yoshini aniqlash masalasi. Landshaftlarning o‘zini-o‘zi sozlab turishi va tashqi ta’sirlariga nisbatan barqarorligi.

Landshaftlar faoliyatining energetik omillari. Landshaftlarda moddaning biokimyoiy aylanishi va landshaftlarning biomahsuldorligi. Landshaftlarning maxsus faoliyatini o‘rganishdagi geokimyoiy va geofizikaviy yondashishlar.

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** kichik guruhlarda ishlash.

**Adabiyotlar:** A1;A3; Q6; Q13.

### **Landshaftlarni tasniflash masalalari**

Landshaftlarni tasniflashning asosiy tamoyillari. A.G.Isachenko (1961), N.A.Gvozdeskiy (1961), F.N.Milkov (1967) larning landshaftlarni tasniflash tajribalari. V.A.Nikolaev (1979)ning landshaftlarni tasniflash sxemasi. Tasnif birliklari.

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A4; Q8; Q9, Q13.

### **Landshaft va inson aloqadorligi masalalari. Amaliy landshafshunoslik.**

Tabiiy-antropogen landshaftlar va ularning hosil bo‘lish omillari. Landshaftlardagi ma‘lum maqsadlarni ko‘zlab qilingan ta’sirlar, ularning oqibatida kutilgan va kutilmagan o‘zgarishlar. Antropogen landshaft, madaniy landshaft tushunchalari. Antropogen landshaftlarni tasniflash tajribalari. Qishloq xo‘jalik landshaftlari, sanoat landshaftlari, shaharlar landshaftlari, suv, antropogen landshaftlari, o‘rmon-antropogen landshaftlar va h.k. Madaniy landshaftlar. Ularni barpo qilishning ilmiy-geografik asoslari. Uning mazmuni va vazifalari. Landshaft haritalari va ulardan foydalanish. Landshaftlarni xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida foydalanish nuqtai nazaridan baholash. Baholashning asosiy tamoyillari va metodlari.

Landshaftlarni prognozlash (bashoratlash). Uning asosiy tamoyillari. Prognozlash metodlari

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A2; Q8; Q9, Q12.

### **Landshafshunoslik va ekologiya,Landshaft haritalari va ularning turlari.**

Landshaftlarni o‘rganishda ekologik yondashish. “Ekosistema”, “Geoekologiya” tushunchalari. Mayda masshtabli, o‘rta masshtabli va yirik masshtabli landshaft haritalarini tuzishning asosiy xususiyatlari va metodlari.

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A3; Q5; Q7, Q11.

«Geografiya » yo‘nalishi 2-kurs talabalariga « **Landshafshunoslik** » fanidan ma’ruza uchun  
**TAQVIM ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Soat</b>
1.	Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni	2
2.	Landshafshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi.	2
3.	O‘zbekistonda Landshafshunoslik fanining rivojlanish tarixi.	2
4.	Landshaftlarni hududiy tabaqlanishi. Kenglik zonallik.	2
5.	Azonallik.Balandlik mintaqalari.	2
6.	Landshaft haqidagi asosiy tushunchalar	2
7.	Landshaft komponentlari, chegaralari, yoshi	2
8.	Landshaftlarning ichki tuzilishi. Fatsiyaning bir butunligi va bo‘linmasligi.	2
9.	Urochishalar landshaftlarning asosiy morfologik qismi ekanligi. Urochishalarni tasniflash.	2
10.	Landshaftning dinamikasi, evolyutsiyasi va rivojlanishi	2
11.	. Landshaftlarni maxsus faoliyati	4
12.	Landshaftlarni tasniflash masalalari	2
13	Landshaft va inson aloqadaorligi masalalari. Amaliy landshafshunoslik.	2
14	Landshafshunoslik va ekologiya	2
15	Landshaft haritalari va ularning turlari.	2
<b>Jami</b>		<b>32</b>

**Amaliy mashg‘ulotlarini tavsiya etiladigan mavzulari**

Har bir amaliy mashg‘ulot, dastlab ishning maqsadini va mavzuga oid nazariy bilimlarni qisqacha yoritishdan boshlanadi. So‘ng ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun talab qilingan vazifalar aniq belgilanib, ishni bajarish tartibi esa qo‘yilgan vazifalar ketma-ketligiga asoslanadi. Barcha ishlar olingan natijalarning tahlili bilan yakunlanadi.

**Amaliy mashg‘ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:**

Komponentlar haritalarini qiyosiy tahlil qilish va tabiiy komplekslarning harita-gipotezasini yaratish.

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** zinama-zina, muammoli ta’lim, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A2;A3; Q8; Q13.

Landshaft haritalarini tahlil qilish asosida landshaftlar tasnifini aniqlash, shartli belgilarni o‘rganish.

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** KEYS, muammoli ta’lim, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1; A2; A3; Q8; Q13.

Turli mavzularda yozma ish va referatlar tayyorlash..

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** muammoli ta’lim, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A3; Q8; Q13.

O‘zbekiston landshaft haritasi asosida landshaft kesmalari tayyorlash

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** qor bo'roni, muammoli ta'lism, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A3; Q8.

Turli tabiiy geografik okrulgarning landshaft xususiyatlarini yoritib berish.

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** FSMU, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A3; Q8; Q13.

Yirik masshtabli landshaft haritalarini tuzishning asosiy xususiyatlari va metodlari.

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** Zinama-zina, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A3; Q8; Q10.

Landshaft haritalarini chizish.

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** Zinama-zina, muammoli ta'lism, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A4; Q8; Q9.

Landshaftlarda moddaning biogeokimyoviy aylanishi.

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** muammoli ta'lism, KEYS, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A2; Q8; Q11.

Landshaftlarning klassifikatsion birlklari.

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** muammoli ta'lism, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A2; Q8; Q12.

A.G.Isachenkoning landshaftlarni tasniflash tajribasi.

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** ajurli arra, muammoli ta'lism, aqliy hujum.

**Adabiyotlar:** A1;A3; Q7; Q9.

#### **Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:**

Nº	Mavzular nomi	Soat
1	"Landshafshunoslik" fani, predmeti, tadqiqot ob'ekti.	2
2	Landshafshunoslikning chet mamlakatlar va O'zbekistonda rivojlanish tarixi	2
3	Kenglik zonallik va uni vujudga keltiruvchi omillar.	2
4	Azonallik qonuniyati. Balandlik mintaqalari, Sektorlik.Barerlik (to'siqlik) va ularni nomoyon bo'lish shakllari.	2
5	Landshaft haqidagi asosiy tushunchalar	2
6	Landshaft komponentlari, chegaralari, yoshi	2
7	Fatsiyaning bir butunligi va bo'linmasligi.	2
8	Urochishalar va ularni tasniflash.	2
9	Landshaftning dinamikasi va rivojlanishi	4
10	Landshaftlarning barqarorligi	2
11	Landshaftlarda namning va moddaning biogeokimyoviy aylanishi.	2
12	Landshaftlarni tasniflash tamoyil va metodlari	2
13	Er shari landshaft tiplari	2
14	Antropogen landshaftlar	2
15	Antropogen landshaftlarni tasniflash	2
16	Landshaft ekologiyasi	2
17	Landshaft kartalari va landshaft kesmasi	2
Jami:		36

## **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

*Mustaqil ishni tayyorlashda “Landshafshunoslik” fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda talabaga quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallardan foydalangan holda fanning ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash;
- maxsus adabiyotlardan foydalangan holda, fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- fanning talaba tomonidan o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘limlarini va mavzularini chuqur o‘rganish;
- masofaviy (distansion) ta’limdan foydalanish va h.k.

Kurs bo‘yicha mustaqil ta’lim talabalarga oldindan berib qo‘yilgan mavzular bo‘yicha referat, haritalar chizish va tahlil qilish, jadvallar to‘ldirish, qo‘sishimcha ma’lumotlar to‘plash orqali amalga oshiriladi.

Izoh: Fan ishchi dasturini shakllantirish jarayonida mazkur mashg‘ulot uchun ishchi o‘quv rejada ko‘rsatilgan soatlar hajmiga mos mavzular ro‘yxati shakllantiriladi.

Nº	Mustaqil ta’lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarilish muddati	Hajmi (soatda)
1	Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	6
2	Landshaftning tabiiy komponentlari.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	6
3	Landshaft hosil qiluvchi omillar.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	6
4	Landshaft komponentlari o‘rtasidagi o‘zarot va aloqadorliklar.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	6
5	Landshaftlarning morfologik tuzilishi.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	6
6	Landshaftlarning modellari.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
7	Landshaftlarda modda va energiya harakati.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	6
8	Landshaftlarda biogeokimyoiy aylanma harakatlar.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
9	Landshaftlar dinamikasi.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	6
10	Landshaftlar barqarorligi.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	6
11	Landshaftlarni tasniflashning ilmiy asoslari.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
12	Landshaftlarni haritaga tushirish va rayonlashtirish.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4

13	Geogsistemalar haqidagi ta'limotning asosiy mazmuni.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni Bajarish	reja asosida	4
14	Tabiiy geografik komplekslar ierarxiyasi.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni Bajarish	reja asosida	4
15	Antropogen landshaftlar va ularning turlari.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
<b>JAMI</b>				<b>76</b>

### Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, yangi pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Dasturdagi barcha ma'ruza mavzularini o'tishda ta'limning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Bumerang", "YOlpig 'ich", "Aqliy xujum", "Masofaviy ta'lif", "Zanjir", "Klaster" hamda "Muammoli ta'lif" texnologiyasining "Munozarali dars" kabi usullarini qo'llash o'rnilidir. Kurs bo'yicha informatsion ta'minot dasturda ko'rsatilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, elektron manbalar, dissertatsiyalar, monografiyalar, horijiy adabiyotlar va Internet ma'lumotlarini tashkil etadi. SHuningdek, amaliy mashg'ulotlar jarayonida fanga tegishli bo'lgan maxsus qurilmalar, jumladan globus, relief shakllari maketi, mavzuli haritalar, chizmalar va slaydlardan foydalanish nazarda tutiladi.

### "Landshafshunoslik" fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni.

"**Landshafshunoslik**" fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lif standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

**joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollevium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiyoq soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

**yakuniy nazorat (YAN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. YAKUNIY nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "YOzma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lif muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darjasini ballar orqali ifodalanadi. « **Landshafshunoslik** » fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: YA.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajas
<b>86-100</b>	<b>A'lo</b>	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
<b>71-85</b>	<b>YAxshi</b>	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
<b>55-70</b>	<b>Qoniqarli</b>	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
<b>0-54</b>	<b>Qoniqarsiz</b>	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:  $R = \frac{v * o}{100}$

bu erda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yildi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

ON va YAN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YAN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'limgan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		Maksimal	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi	15	07	08
2	Talabalarning mustaqil ta'lif topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	05	05
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	05	05
	Jami ON ballari	35	17	18

#### **Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		Maksimal	1- JN	2- JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	15	07	08
2	Mustaqil ta'lif topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	05	05
3	YOzma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	05	05
	Jami JN ballari	35	17	18

YAkuniy nazorat "YOzma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "YOzma ish" variantlari asosida o'tkaziladi. Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "YOzma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

№	Ko'rsatkichlar	YAN ballari	
		Maksimal	O'zgarish oraliq'i
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6
2	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	24	0-24
	Jami	30	0-30

#### **YAkuniy nazoratda "YOzma ish"larni baholash mezoni**

YAkuniy nazorat "YOZMA ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-3 ball oralig‘ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin.

YOZMA sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

### «Landshaftshunoslik asoslari » fani bo‘yicha reyting nazoratlari grafigi

**Ta’lim yo‘nalishi: Gieografiya**

**Umumiy o‘quv soati: - 128 soat, ma’ruza - 30 soat, amaliy mashg‘ulot - 46 soat, mustakil ish - 52 soat**

Ishchi o‘quv dasturidagi mavzular tartib raqami (qo‘srimcha topshiriq mazmuni)	Umumiy soat					Baholash turi	Nazorat shakli	Bali		Muddati (hafta)
	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Seminar mashg‘uloti	Mustaqil ish	Jami			mak. ball	min. ball	
1-7 1-12	14	22		24	60	JB-1	Kundalik nazorat, davomat, nazorat ishi, uy ishi	17,0		Reja asosida
8-15 13-26	16	24		28	68	JB-2	Kundalik nazorat, davomat, nazorat ishi, uy ishi	18,0		Reja asosida
8-15 13-26	16	24		28	68	ON	yozma	35		Jadval bo‘yicha
1-15 1-26	30	46		52	128	JN+ON		70.0	39.0	
Jami	30	46		52	128	YAB	yozma	30		Jadval bo‘yicha

### Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

- Zokirov SH.S. Landshaftshunoslik asoslari. –T.: Universitet, 1994.
- Zokirov SH.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. –T.: Universitet, 1998.
- Zokirov SH.S. Kichik hududlar tabiiy geografiyasi. –T.: Universitet, 1999.
- Isachenko A.G. Landshaftovedenie i fiziko-geograficheskoe rayonirovanie. -M.: 1991.

### Qo‘srimcha adabiyotlar

- Sochava V.B. Vvedenie v uchenie o geosistemax. -Novosibirsk, 1978.
- Armand D.L. Nauka o landshafte. -M.: 1975.
- Marsinkevich G.I. i dr. Osnovy landshaftovedeniya. -Minsk, 1986.
- Milkov F.N. Landshaftnaya geografiya i voprosy praktiki. -M.: 1966.
- Nikolaev V.A. Landshafty aziatskix stepey. -M.: 1999.
- Goudie A. Physische Geographie. –Munxen, Westerman, 1997.
- Gograpfie/ Physische Geographie/. Bonn, Cornelsen, 1989.
- Kulke e. Wirtschafts - geographie. Munxen – Zurich, Ferdinand Schoningh, 2004.
- Nigmatov A.N. YUsupov R. Tabiiy geografik komplekslar va ekzogen jarayonlar. -T.: Turon iqbol, 2006







